

CREATION OF ITEMS WITH HIGH FIBER QUALITY IN THE SELECTION OF COTTON VARIETIES BELONGING TO G.HIRSUTUM L. TYPE

Sardor Abdumurodugli Raupov

Independent Researcher of Tashkent State Agrarian University

Ilkhom Abdurakhmonov

Director of the Andijan Scientific Experimental Station of the Institute of Cotton Breeding, Seeding and Cultivation Agro-technologies, Doctor of Agricultural Sciences

Guzal Ruzievna Kholmurodova

Doctor of Agricultural Sciences, Professor, Tashkent State Agrarian University

ABSTRACT

In the article "G. HIRSUTUM L." in the selection of cotton varieties belonging to the type, there was talk about the methods of creating products with a high fiber quality index.

Keywords: cotton, cotton varieties, selection, fiber, quality, materials, production methods.

G.HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB G'O'ZA NAVLARI SELEKSIYASIDA TOLANING SIFAT KO'RSATKICHI YUQORI BO'LGAN ASHYOLAR YARATISH

Raupov Sardor Abdumurod o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Abduraxmonov Ilxom

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari instituti Andijon ilmiy tajriba stansiyasi direktori, qishloq xujaligi fanlari doktori

Xolmurodova Go'zal Ro'zievna

Toshkent davlat agrar universiteti qishloq xujaligi fanlari doktori, professor

ANNOTATSIYA

maqolada **g.hirsutum l.** turiga mansub g'o'za navlari seleksiyasida tolaning sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ashyolar yaratish usullari haqida gap borgan.

Kalit so'zlar: g'o'za, g'o'za navlari, seleksiya, tola, sifat, ashyo, yaratish usullari.

Dunyo miqyosida g'o'zadan yuqori tola hosili olish borasida seleksiya uslublarini takomillashtirish, tolaning sifat belgilarini nazorat qiluvchi genlarning additiv samaradorligi, dominantlik darajasi va yo'nalishini aniqlash orqali jahon andozalariga mos yangi g'o'za navlarini yaratish bo'yicha qator izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda paxta tolasini to'liq qayta ishlash masalasini yechish uchun tolaning sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va yuqori tola hosildorligiga ega g'o'zaning yangi navlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda tola hosildorligi 6-7 s/ga ni tashkil

etib, yetakchi paxtachilik davlatlari AQSh, Xitoy, Avstraliyadan 2-2,5 barobar kam bo'lganligi sababli tola hosildorligini oshirish borasidagi tadqiqotlar olimlarning e'tiborini tortmoqda.

Tolaning sifat ko'rsatkichlari g'oz navlari seleksiyasida asosiy belgilardan bo'lib, navning xaridorgirligini ta'minlaydi. Tola mikroneyri belgisi tolaning, havo o'tkazuvchanligi, sifatini ko'rsatadi. Jahon andozasi talablariga ko'ra, G.hirsutum L. turiga mansub navlar seleksiyasida tola mikroneyri 3.8-4.9 oraliqida bo'lishi lozim. Tola uzunligi tola sifatining asosiy belgilaridan bo'lib, tola pishiqligini asoslaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda yaratilgan navlarning 90 % ga yaqini tola 4 tipga javob beradi. Umuman olganda, tolaning barcha sifat ko'rsatkichlari to'qimachilik sanoatida nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar natijasidagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, tizmalarda tolaning mikroneyri 4,0 (T-160) dan 4,3 (T-340) gacha oraliqda bo'lib, andoza Andijon-36 navida esa 4,4 ni tashkil etdi. Nisbiy uzilish kuchi tolaning mikroneyri va uzunligiga bog'liq bo'lib, o'lchov birligi g.k./teks hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda solishtirma uzilish kuchi 30,5 g. kuch/teks (T-176-191) dan 31,8 g.kuch/teks (T-T-340) gacha bo'lgan natijalarni tashkil etdi. Belgi bo'yicha andoza navi 28,1 g.kuch/teks ni tashkil etib, ajratib ol, yaratilgan barcha tizmalar andoza navdan ustunlikni namoyon etdi.

Tadqiqotlarimizda tola uzunligi bo'yicha andoza Andijon-36 navi 1,23 dyuymni tashkil etgani holda, biz tomonimizdan yaratilgan tizmalarda ushbu ko'rsatkich 1,24 (T-176-191, T-165-179) dyuymdan 1,30 (T-160) dyuymgachani tashkil etdi, ya'ni tolasi uzun bo'lgan tizmalar yaratildi. Tolaning bir xillilik indeksiga e'tiborimizni qaratganimizda, tizmalarda 87,2 % (T-160) dan 88,5 % (T-176-191) gachani, andoza Andijon-36 navida esa 86,4 % ni tashkil etdi. Kalta tolalik indeksi tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu belgi bo'yicha tizmalarda 5,3 % (T-165-179) dan 5,7 % (T-160, T-176-191) gacha oraliqda bo'lib, Andijon-36 navida esa 6,0 % ni tashkil etdi. Uzilishdagi uzayish andoza Andijon-36 navida 5,1 ni, tizmalarda 5,3 (T-165-179) dan 6,2 (T-340) gacha bo'lganligi qayd etildi. Pishib yetilganlik koeffitsienti andoza navda 84,8 ni, tizmalardan esa 85,5 (T-506-510) dan 86,8 (T-340) gacha, tolaning yigiruvchanlik qobiliyati andoza navda 163 ni tashkil etib, tizmalarda 164 (T-340) dan 170 (T-160) gachani tashkil etdi.

Jadval

Tizmalarda tolaning sifat ko'rsatkichlari, 2023 y.

Tizmalar								
T-340	4,3	31,8	1,25	87,6	6,4	6,2	86,8	164
T-160	4,0	31,5	1,30	87,2	6,4	5,7	86,4	170
T-176-191	4,1	30,5	1,24	88,5	6,0	5,7	86,0	167
T-165-179	4,4	30,4	1,24	87,5	6,1	5,3	85,5	165
Andijon-36	4,4	28,1	1,23	86,4	6,0	5,1	84,8	163

Demak, biz tomonimizdan yaratilgan tizmalarning tolasining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha mikroneyr bo'yicha barcha tizmalarning, tolaning solishtirma uzilish uzunligi bo'yicha T-340 va T-160 tizmalarining, tolaning yuqori o'rtacha uzunligi bo'yicha T-160 tizmasining ustunligi qayd etildi. Bir xillilik va kalta tolalik indeksi indeksida T-176-191 tizmasi, uzilishdagi uzayishda va pishib yetilganlik koeffitsientida T-340 tizmasi ajralib chiqdi. Tolaning yigiruvchanlik qobiliyati bo'yicha T-160 tizmasida nisbatan yuqori natijalar kuzatildi. Ulardan genetik-seleksion tadqiqotlarda tolaning sifat ko'rsatkichlarining yaxshilashda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Namazov Sh. E., G.R.Xolmurodova. G'o'za seleksiyasida konvergent duragaylashning samaradorligi. Monografiya. –Toshkent: «Navro'z», 2015. –B.160.
2. Namozov Sh.E., Xolmurodova G.R., Jumaeva G. G'o'zaning yuqori avlod konvergent duragaylarida tola chiqimi va tola uzunligi shakllanishi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnalining Agro ilm ilmiy ilovasi. –Toshkent, 2011. -№4[20]. – B.20. (06.00.00; №1).
3. Xolmurodova G.R. Konvergent duragaylash uslublari orqali g'o'za navlari seleksiyasi samaradorligini oshirish: Q.x.f.d.(DSc).....diss. avtoref. - Toshkent, 2017. -56 b.
4. Mirxamidova N.A. G'o'zaning konvergent duragaylash usulida yaratilgan oilalari asosida yuqori tola sifatiga ega bo'lgan tizmalar yaratish: Q.x.f.f.d. (PhD).....diss. avtoref. - Toshkent, 2023. -45 b.
5. Namazov Sh. E., G.R. Kholmurodova. Efficiency of convergent hybridization in cotton breeding. -Tashkent: "NAVRO'Z", 2015. -160 p.
6. Namozov Sh., Muratov A., Kholmurodova G. Convergent method.// Agricultural magazine of Uzbekistan. -Tashkent, 2006. -#7. - B. 14-15.
7. Kholmurodova G.R., Namazov Sh.E., Yusupov A. Rapid formation of convergent hybridization. // Mater.V-oy Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konf. Molodyx Uchyonyx Agrariev". - Astrakhan, 2016. - B.391-394.
8. Kholmurodova G. Inheritance of early ripening character in cotton hybrids obtained by convergent method. Sostoyanie seleksii i semenovodstva hlopchatnika i perspektivy ee razvitiya: Proceedings of the international scientific-practical conference. -Tashkent, 2006. -B.167-168.Jo'rayev, S. T., Xudarganov, K. O. (2022). Qishloq ekinlari urug'chiligi va urpug'shunoslgi. LESSON PRESS, 1(1), 167.
9. Jo'rayev, S. T. (2022). Go'za seleksiyasi va urug'chiligi. LESSON PRESS, 1(1), 288.
10. Jo'rayev, S. T., Ashurov, M., Narmatova, G., Toreev, F., Akhmedov, D., Mavlonova, N., Ergashev, J., Baratova, A. (2022). Cotton breeding and seed production. LESSON PRESS, 1(1), 224.
11. Jo'rayev, S. T. (2022). G'o'zaning introgressiv duragay va tizmalirning O'zbekistondagi xar xil tuproq sharoitlarda bo'lgan adaptiv patinsolidan foydalanish. LESSON PRESS, 1(1), 211.
12. Jo'rayev, S. T. (2022). G'o'za genetikasi. LESSON PRESS, 1(1), 96.
13. Jo'rayev, S. T., Ergashov, J. A. (2022). Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi. LESSON PRESS, 1(1), 120.

14. Жураев, С. Т. (2022). Оценка волокна гибридов хлопчатника, выращенных в различных регионах Узбекистана. Министерство сельского хозяйства и продовольствия Республики Беларусь учреждение образования «Гродненский государственный аграрный университет», 1(52-55), 5.
15. Djonibekova, NE, Jo'raev, ST, Inoyatova, MH (2022). Effect of bap concentration and content of food environment on "in vitro" regeneration of rizamat (vitis vinifera l) cultivar. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE), 3(2), 75-78.
16. Joraev, S. T., Ismoilov, A. A., Dilmurodov, Sh. D. (2022). Yasmiq nav va tizmalarining o'suv davri. Xorazm Ma'mun Akademiyasi, 22(6), 5-11.
17. Joraev, S. T., Raimova, D. (2022). Взаимосвязь периода вегитации линий хлопчатника с Некоторыми хозяйственно-ценными признаками в зависимости от регионов возделывания. Tafakkur manzili ilmiy-uslubiy jurnali, 1(1), 4-14.
18. Juraev, S. T., & Rakhmatullayeva, R. A. (2023). Organization of Primary Seeding of Pumpkin (Cucurbita Pepo L.) Orbita Variety. Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences, 1(7), 35-43.
19. Juraev, S. T., Shaikhova, D. D., & Akhatov, X. X. (2023). Effectiveness of Creating Vitamin-Rich Local Varieties of Lemon. Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences, 1(7), 1-7.
20. Jurayev, S. T., & Karimov, R. A. (2023). Selecting Initial Breeding Sources for Morning Varieties from The Potato Variety Sample Collection. Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences, 1(6), 7-12.
21. Juraev, S. T., & Sobirova, D. Z. (2023). Assessment of the value characteristics of local "sochilmas" and "nafis" varieties of soy. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 65-71.
22. Jo'raev, S. T., Mirzaeva, B. K., & ugli Shukurov, A. A. (2023). Correlations between value-economic traits in different ecological areas of new cotton ranges. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(7), 178-184.
23. Turdiqulivich, J. S., Nazarovna, B. N., & Bobokulovna, J. M. (2023). Selection of High Photosynthetic Productivity Of Broad Bean (Vicia Faba L.) Lines. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(4), 6-9.
24. Ismoilov, A. A., & Jurayev, S. T. (2023). Selection of varieties and ranges of lens (lens culinaris) with high grain yield and high protein content. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(05), 157-162.
25. Juraev, S. T. (2023). Correlation relationships between the main value-economic characteristics of cotton grown in different regions of Uzbekistan. Open Access Repository, 9(2), 131-137.
26. Juraev, S. T., Shukurov, A. A., & Jabborova, N. O. (2022). Analysis of value-economic characters of cotton introgressive hybrids in different soil-climate conditions in Uzbekistan. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 828-835.